



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 3 (5)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**Farg‘ona davlat universiteti uchun  
MAXSUS SON**

**3**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

<b>Abduvoxidov A.A.</b> Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
<b>Olimova N.X.</b> Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
<b>Эргашев А.Х.</b> Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
<b>Yulchiyev A.O.</b> Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
<b>Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A.</b> Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
<b>Karimov Sh.X.</b> Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
<b>O‘rinboyev D.B.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
<b>Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R.</b> Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
<b>Israilova M.V.</b> Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
<b>Turg‘unov M.M.</b> Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
<b>Raximova K.N.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
<b>Mannopova M.S.</b> Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
<b>Nematova Sh.E.</b> Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
<b>Rasulov U.A.</b> Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
<b>Raximov D.Sh.</b> Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
<b>Teshabayeva O.N.</b> Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
<b>Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K.</b> O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
<b>Jaksimova Z.R.</b> Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
<b>Yunusov A.R.</b> "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
<b>Юнусов Ш.</b> Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
<b>Xalmatjanova G.D.</b> Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
<b>Xomidov Q.Q.</b> O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
<b>Jo‘rayev H.Q.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari .....	114
<b>Xakimov D.R.</b> Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
<b>To‘xtasinova D.</b> Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
<b>Xolmatov B.A.</b> Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
<b>Jumakulov Z.I., Baxromov B.</b> O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
<b>To‘ychiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
<b>Abdisamatov Sh.A.</b> Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
<b>Asraqulov A.S.</b> Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
<b>Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda</b> Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
<b>Muxtorov A.A., Mirzayev A.T.</b> Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
<b>Usibjonova G.U., Mannopova M.S.</b> Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

<b>Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N.</b> O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	<b>166</b>
<b>Ximmatova G.K., To‘xtasinova D.</b> Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	<b>170</b>
<b>Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T.</b> Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	<b>174</b>
<b>Xasanova R., Teshabayeva O.N.</b> Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	<b>180</b>
<b>Zufarova G.A.</b> Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	<b>184</b>
<b>Ergashev J.S.</b> "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish .....	<b>187</b>
<b>O‘rinov A.A.</b> Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>192</b>
<b>Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A.</b> Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	<b>197</b>
<b>Саиджоновна З.Б.</b> Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	<b>201</b>
<b>Qodirov Z.E.</b> Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	<b>205</b>
<b>Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A.</b> Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	<b>210</b>
<b>Хайдаров Х.</b> Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	<b>214</b>
<b>Махамადийев М.М.</b> Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	<b>217</b>
<b>Madaminov G‘.M.</b> Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	<b>222</b>
<b>Nazirboyev D.D.</b> Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	<b>227</b>
<b>Хасанова С.И.</b> Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	<b>232</b>
<b>Teshaboyev B.A.</b> Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	<b>237</b>
<b>Mustafoyeva Z.A.</b> Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	<b>242</b>
<b>Xolmirzayev U.A., Muradova N.R.</b> Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	<b>245</b>
<b>Sadullayev R.P.</b> Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	<b>249</b>
<b>Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н.</b> Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	<b>258</b>
<b>Tursunov O.B.</b> Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	<b>269</b>
<b>Sayitbayev Sh.D.</b> Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	<b>274</b>
<b>Ibodulloyeva Z.S.</b> Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	<b>278</b>
<b>Salimova Z.S.</b> Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	<b>282</b>
<b>G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K.</b> Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	<b>286</b>
<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	<b>289</b>
<b>Rahimova M.I.</b> O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	<b>294</b>
<b>Rahmatullayeva D.O.</b> Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	<b>299</b>
<b>Valikulov Sh.Z.</b> “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	<b>305</b>
<b>Турабекова Г.И.</b> Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	<b>312</b>
<b>Tajirboyev S.O.</b> Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	<b>316</b>
<b>Madaminov A.M.</b> Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	<b>319</b>

**RESPUBLIKA TIJORAT BANKLARI OPERATSIYALARI VA  
ULARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**ОПЕРАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ РЕСПУБЛИКИ И  
ВОПРОСЫ ИХ РАЗВИТИЯ**

**OPERATIONS OF COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC  
AND ISSUES OF THEIR DEVELOPMENT**

**G‘aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi**

O‘zbekiston Milliy Universiteti Iqtisodiyot fakulteti “moliya va kredit” kafedrasi o‘qituvchisi

**Oxunjonova Kamola Komiljon qizi**

O‘zbekiston Milliy Universiteti Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya**

Maqola O‘zbekiston tijorat banklari operatsiyalarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish orqali bank faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan. Tadqiqotda banklarning aktiv va passiv operatsiyalari, depozit operatsiyalari tahlil qilinadi. Qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish imkoniyatlari, uning banklar resurs bazasini mustahkamlash, risklarni boshqarish va likvidlikni oshirishda tutgan roli o‘rganilgan. Natijalar O‘zbekistonda bank operatsiyalarini optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda qimmatli qog‘ozlar bozorining ahamiyati ko‘rsatiladi.

**Kalit so‘zlar:** tijorat banklari, aktiv operatsiyalar, passiv operatsiyalar, depozit operatsiyalari, likvidlik, qimmatli qog‘ozlar, diversifikatsiya

Данная статья посвящена вопросам развития операций коммерческих банков в Узбекистане с акцентом на повышение эффективности их деятельности через развитие рынка ценных бумаг. В исследовании анализируются активные и пассивные операции банков, а также депозитные операции. Рассматриваются возможности развития рынка ценных бумаг, его роль в укреплении ресурсной базы банков, управлении рисками и повышении ликвидности. Результаты подчеркивают значимость рынка ценных бумаг для оптимизации банковских операций и обеспечения финансовой стабильности в Узбекистане.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, активные операции, пассивные операции, депозитные операции, ликвидность, ценные бумаги, диверсификация

This article is dedicated to the development of commercial bank operations in Uzbekistan, focusing on improving banking efficiency through the development of the securities market. The study analyzes banks’ active and passive operations, as well as deposit operations. The potential of the securities market, its role in strengthening banks’ resource base, managing risks, and enhancing liquidity, is also examined. The results highlight the importance of the securities market in optimizing bank operations and ensuring financial stability in Uzbekistan.

**Key words:** commercial banks, asset operations, liability operations, deposit operations, liquidity, securities, diversification

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” to‘g‘risidagi farmonida-moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg‘or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi [1].

Bugungi kunda moliya bozorlaridagi raqobatning kuchayishi tijorat banklari faoliyatini samaradorligini oshirishini talab qiladi. Tijorat banklari-bu yuridik va jismoniy shaxslarga bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi moliyaviy muassasalar hisoblanadi. Tijorat banklari o‘zlarining xo‘jalik mavqeyiga ko‘ra aksionerlik tipidagi muassasalar bo‘lsa, huquqiy mavqeyiga ko‘ra, faoliyatning biron bir turiga xizmat ko‘rsatuvchi, ixtisoslashgan yoki milliy bank bo‘lishi mumkin[2]. Ularning vazifalari-omonatlarni qabul qilish, kreditlar berish, qimmatli qog‘ozlar bilan ishlash, va valyuta operatsiyalari bilan shug‘ullanish hisoblanadi. Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan aniq moliyaviy amallar va jarayonlarni-tijorat banklari operatsiyalari nazorat qiladi. O‘zbekistonda tijorat banklari operatsiyalari sezilarli darajada rivojlanayotgan bo‘lsa-da, kreditlash sifati, resurs bazasining barqarorligi, qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanmaganligi, va risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etishda bank faoliyatiga strategik yondashuvlar, jumladan qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tijorat bankining aktiv va passiv operatsiyalari bo‘yicha xorijlik olimlar va O‘zbekistonlik olimlar salmoqli ishlarni amalga oshirishgan. Britannica Encyclopedia ga ko‘ra, tijorat banklari aktivlari asosan kreditlar, bozorda sotiladigan qimmatli qog‘ozlar hamda majburiy rezervlardan iborat bo‘lib, bank daromadining asosiy manbaini tashkil etadi[3]. Ushbu yondashuv bank aktivlarining tuzilishi va ularni samarali boshqarish zarurligini asoslab beradi. Muzaffar Saxibjonov (2025)-tijorat banklari aktiv operatsiyalarini boshqarish orqali daromadlilikni oshirish masalalarini o‘rganadi. Bu maqola aynan maxsus aktiv operatsiyalar (aktivlar daromadlilikligi) tushunchasiga chuqur kirib, ularni boshqarish amaliyotini tahlil qiladi[4]. Ruziyev Baxtiyor (2025) esa bank aktivlarining sifati, tarkibi, va muammoli aktivlar ulushini kamaytirish bo‘yicha ilmiy xulosalar beradi[5]. Bank resurslarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar banklarning-passiv operatsiyalar deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarining passiv va aktiv-passiv schyotidagi pul mablag‘larining salmog‘i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o‘ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo‘lgan kredit resurslarini tashkil qiladi. Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosan to‘rtta shakli mavjud:

1. Tijorat banklari qimmatbaho qog‘ozlarini muomalaga chiqarish yo‘li bilan resurslar yig‘ish;
2. Bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;
3. Boshqa kreditlarning mablag‘larini jalb qilish;
4. Depozit operatsiyalarni amalga oshirish[6].

Passiv operatsiyalar bankning majburiyatlari bo‘lib, u orqali resurslar jalb qilinadi va keyingi aktiv operatsiyalar uchun baza yaratiladi[7].

Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari bilan birgalikda, depozit operatsiyalari bo‘yicha ham bir qator ishlar olib borilgan. Akmal Rahimovning maqolasi banklar tomonidan zamonaviy depozit xizmatlari, masofaviy depozitlar va ularning turlari haqida yozilgan. Bu manba depozit operatsiyalarining amaliyoti va muammolarini ko‘rsatadi[8]. Xilola Mirzayeva tadqiqotida tijorat banklarida depozit operatsiyalarini yuritish likvidlik, resurs bazasi va barqarorlik nuqtai nazaridan tahlil qilingan[9]. Bu ikkala tadqiqotchilarni ishlarida depozit operatsiyalarini jalb qilish, boshqarish, va hisobini yuritish bo‘yicha so‘z borsa, Otabek Melikov maqolasida depozit amaliyotini shakllantirish bo‘yicha fikr-mulohazalarni ko‘rishimiz mumkin. Uning maqolasida depozit tushunchasi, turlari va jalb qilinish mexanizmlari, shuningdek depozitlar tarkibi va bank resurslaridagi ulushi tahlil qilingan. Shu bilan birga tijorat banklarining aktiv, passiv, va depozit operatsiyalari tahlili ularning resurs bazasi va moliyaviy barqarorligini shakllantirishdagi muhim rolini ko‘rsatdi[10]. Biroq, zamonaviy bank faoliyatini yanada samarali qilish uchun qimmatli qog‘ozlar bozoridagi imkoniyatlarni ham hisobga olish zarur. Shahnoza Sobirova o‘z maqolasida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati, kapital bozoriga ishtiroki, emissiya siyosati, investitsiya portfeli va risklarni boshqarish masalalari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, banklarning bozor infratuzilmasi va raqamli texnologiyalarni qo‘llashi samaradorlikni oshiradi[11]. Azizbek G‘ofurov esa tijorat banklaridagi qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq

operatsiyalar (sotish, sotib olish, investitsiya) va ularning bank faoliyatidagi roli hamda ta’siri haqida ilmiy tahlil beradi[12].

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston bank tizimining asosiy ko‘rsatkichlarining 2024-2025-yillardagi dinamikasini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ma’lumotlarni yig‘ish usullari, tahlil metodlari, tahlilning asosiy mezonlari, metodologik asos, natijalarni aniqlash va xulosalar chiqarish yondashuvlar asosida olib borildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston tijorat banklarining faoliyati sezilarli darajada o‘ydi, va ularning majburiyatlari, aktivlari, shu o‘rinda kredit va depozit hajmlari oshdi. Ushbu bo‘limda 2024-2025-yillarda bank tizimining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlil qilinish bilan birga, natijalar bank resurslarini diversifikatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu jadvalda O‘zbekiston tijorat banklarining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarini ko‘rishimiz mumkin.

**1-jadval**

**Tijorat banklarining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari va uning tahlili[13]**

<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>2024-yil (jami)</b>	<b>2025-yil (jami)</b>
Aktivlar(mlrd so‘m)	751 736	892 939
Majburiyatlar (mlrd so‘m)	638 747	759 818
Kreditlar (mlrd so‘m)	525 887	595 309
Depozitlar (mlrd so‘m)	297 396	390 993
Kreditlarning depozitlarga nisbati (%)	177%	152%
Aktivlarning majburiyatlarga nisbati (%)	118%	118%

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki 2024-yilda jami aktivlar 751 736 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshib, 892 939 mlrd so‘mga yetgan. Banklarning majburiyatlari ham 638 747 mlrd so‘mdan mos ravishda 759 818 mlrd so‘mga o‘sgan. Bu o‘shish bank tizimida moliyaviy barqarorlikni saqlab, resurslar hajmining kengayganini ko‘rsatadi. Kreditlar hajmi 1yil oralig‘ida 525 887 mlrd so‘mdan 595 309 mlrd so‘mga yetgan. Shu bilan birga, depozitlar hajmi ham 297 396 mlrd so‘mdan 390 993 mlrd so‘mga oshgan. Buning natijasida, kreditlarning depozitlarga nisbati jami banklar bo‘yicha 177% dan 152% gacha pasaydi. Bu holat, depozitlarning tezroq oshganini yoki kreditlashning sekinlashganini ko‘rsatadi va banklarning resurs bazasi barqarorligini yaxshilaydi. Jadvaldagi boshqa ko‘rsatkichlar, jumladan aktivlarning majburiyatlarga nisbati 2024-2025-yillar oralig‘ida o‘zgarishsiz-118% miqdorda saqlanib qolgan. Bu esa banklarning o‘shib borayotgan aktivlar hajmini moliyalashtirish bilan birga, bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Umuman olganda, 2024-2025-yillarda tijorat banklarining aktiv va passiv ko‘rsatkichlaridagi o‘shish, resurslarni diversifikatsiya qilishni yuzaga keltiradi. Banklar faoliyatini samaradorligini oshirish uchun qimmatli qog‘ozlar bozoridagi imkoniyatlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa banklarning resurs bazasini mustahkamlash, likvidlikni oshirish, va risklarni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot jarayonidan xulosa qilishimiz mumkinki, so‘nggi yillarda xususan 2024-2025-yillar davomida O‘zbekiston tijorat banklari operatsiyalari ijobiy dinamikani ko‘rsatdi. Jami aktivlar, depozitlar, hamda majburiyatlar o‘shishi banklarda moliyaviy barqarorlikni va investor ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq resurs bazasini mustahkamlash, risklarni boshqarish, va likvidlikni oshirish kabi masalalar hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish orqali o‘z faoliyatini diversifikatsiya qilishi, kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashi mumkin. Umuman olganda, qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishi bank operatsiyalarini optimallashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli farmoni [https://lex.uz/docs/-4811025?utm\\_source=chatgpt.com](https://lex.uz/docs/-4811025?utm_source=chatgpt.com)

2. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik-2020. 634b
3. Britannica, T. Editors of Encyclopedia (2024, February 15). Commercial bank. Encyclopedia Britannica. <https://www.britannica.com/money/commercial-bank>
4. Muzaffar Saxibjanov “Tijorat banklari aktivlarini boshqarish va daromadligini oshirish masalalari” <https://doi.org/10.5281/zenodo.15159800>
5. Ruziyev Baxtiyor “Tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishdagi muammolar va ularning yechimlari” <https://share.google/erh8ODXxhcI014IOI>
6. Z. Mamadiyurov, M. Maxmudova, M. Kurbonbekova-Bank ishi darslik 1-jild 2021. 81b.
7. [https://www.cribs.su/bankovskoe-delo/4504/?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.cribs.su/bankovskoe-delo/4504/?utm_source=chatgpt.com)
8. Akmal Rahimov “Tijorat banklari tomonidan depozitlar jalb qilish va ularni boshqarish” [https://yashil-iqtisodiyot.taraqqiyyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/4141?utm\\_source=chatgpt.com](https://yashil-iqtisodiyot.taraqqiyyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/4141?utm_source=chatgpt.com)
9. Xilola Mirzayeva “Banklarda depozit operatsiyalarini hisobini yaratish tartibi” [https://yashil-iqtisodiyot.taraqqiyyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/270?utm\\_source=chatgpt.com](https://yashil-iqtisodiyot.taraqqiyyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/270?utm_source=chatgpt.com)
10. Otabek Melikov “Tijorat banklari depozit xizmatlari amaliyotini takomillashtirish” [https://yashil-iqtisodiyot.taraqqiyyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/4431?utm\\_source=chatgpt.com](https://yashil-iqtisodiyot.taraqqiyyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/4431?utm_source=chatgpt.com)
11. Shahnoza Sobirova “Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish masalalari” [https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/16177?utm\\_source=chatgpt.com](https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/16177?utm_source=chatgpt.com)
12. Azizbek G‘ofurov “Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalari va ularning bank faoliyatida tutgan o‘rni” [https://erus.uz/index.php/er/article/view/2003?utm\\_source=chatgpt.com](https://erus.uz/index.php/er/article/view/2003?utm_source=chatgpt.com)
13. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz). - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari

**УДК:338.24**

**ЎЗБЕКИСТОНДА МАҲСУЛОТ СИФАТИНИ БОШҚАРИШ АМАЛИЁТИНИ ДАВЛАТ  
ТОМОНИДАН ТАРТИБГА СОЛИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ**

**НАПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРАКТИКИ  
УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ПРОДУКЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**DIRECTIONS OF STATE REGULATION OF PRODUCT QUALITY MANAGEMENT  
PRACTICES IN UZBEKISTAN**

**Абдуллоев Аслиддин Жунайдуллоевич**  
БухДУ Иқтисодиёт кафедраси мудири и.ф.д., профессор

**Аннотация**

Мақолада Янги Ўзбекистон шароитида маҳсулот сифатини бошқариш, жумладан, аҳолини сифатли маҳсулотлар билан таъминланишини давлат томонидан тартибга солишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари таҳлил қилиниб, миллий хусусиятлари аниқланган.

**Калит сўзлар:** бошқарув, сифат, маҳсулот сифати, сифат бошқаруви, сифат назорати, сифат менежменти тизими, сифат бошқаруви самарадорлиги

В статье анализируются нормативно-правовые основы управления качеством продукции, включая государственное регулирование обеспечения населения качественной продукцией, в условиях Нового Узбекистана, и выявляются национальные особенности.

**Ключевые слова:** управление, качество, качество продукции, управление качеством, контроль качества, система управления качеством, эффективность управления качеством.